MTT RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR NUTQ RIVOJLANISHINI QOLLAB - QUVVATLASHDA ZAMONAVIY METODLAR VA ULARNING SAMARASI: DASTLABKI NATIJA VA TAHLILLAR

Ne'matova shahnoza Shamsiddin qizi
Qo'qon Davlat Universiteti Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **Muqaddas Umarova**
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20077797

Annotatsiya: Maqolada magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan olib borilgan dastlabki tajriba-sinov ishlarining mazmuni, uning tashkil etilishi, samaradorlik darajalari, dastlabki olingan natijalar haqida so'z olib borilgan.

Kalit so'zlar: O'rta guruh, ko'rgazmalar, didaktik materiallar, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, akt va tarbiyalanuvchi.

Аннотация: В статье рассматривается содержание предварительной экспериментальной работы, проведенной по теме магистерской диссертации, ее организация, уровни эффективности и предварительные результаты.

Ключевые слова: Средняя группа, выставки, дидактические материалы, педагог, ученик, действие и ученик

Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-amaliy va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda zamonaviy metodlarni tashkil etishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab "MTT rivojlanish markazlarida bolalar nutq rivojlanishini qo'llab -quvvatlashda zamonaviy metodlar va ularning samarasi" nomli maxsus amaliyot dastur ishlab chiqildi va shu asosida tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun Qo'qon shahar 48 – Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti (DMTT) 02- guruh tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilari kuzatish va tahlil qilish maqsadida tanlab olindi. Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan tarbiyachilar o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. Biz so'rovnomani onlayn tarzda amalga oshirdik.

Tajriba maqsadi: Bolalar nutqini rivojlantirish uchun qanday metodlar samara berishi va hozirda qanaqa metodlardan foydalanayotganligini oldindan bilish maqsadida olindi.

Tajriba vazifalari: Bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy metodlarni o'rganish va tahlil qilish, turli video-darslar va ko'rgazmali materiallar yordamida ta'lim berish, maxsus mashg'ulotlar va o'yinlar tizimini ishlab chiqish, natijalarni solishtirish va baholash

Tajriba bosqichlari:

Tayyorgarlik va loyihalashtirish bosqichi hisoblanadi. Bunda **:** "MTT rivojlanish markazlarida bolalar nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy metodlar va ularning samarasi" nomli maxsus amaliyot dasturini ishlab chiqish. Obyekt tanlash: Qo'qon shahar 48-DMTT 02-guruh tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarini tajriba guruhi sifatida belgilash. Metodik tayyorgarlik: Kuzatuv varaqlari, baholash mezonlari va onlayn so'rovnoma savollarini tayyorlash.

Aniqlovchi (Diagnostika) bosqichi butun tajriba-sinov ishlarining tamal toshidir. Bu bosqichda siz "Hozirgi holat qanday?" degan savolga javob topishingiz va kelajakdagi natijalarni solishtirish uchun "boshlang‘ich nuqta"ni belgilab olishingiz kerak. Tarbiyachilarning mashg‘ulot o‘tish jarayoni bevosita kuzatilib, ularning bolalar bilan muloqot madaniyati va metodik mahorati baholanadi Guruh tarbiyachilari bo’yicha diagnostika testlarini tayyorlandi. Natijada quyidagi muammolarga duch kelindi: bolalarning nutq rivojlaishida zamonaviy metodlarning tarbiyalachilarda yetarli darajada ma’lumotga ega emasliklari aniqlandi...

Shakllantiruvchi bosqich: Bu bosqichda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Kuzatish (bolalar va tarbiyachilar kuzatildi, tahlil qilindi)
- Savol-javob usuli
- Axborot komunikatsiya tehnologiyalari (AKT)
- Video-darsliklar
- Sahnalashtirilgan o’yinlar

Nazorat bosqichi:

Tadqiqotning ushbu hal qiluvchi bosqichida “MTT rivojlanish markazlarida bolalar nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy metodlar va ularning samarasi” nomli maxsus dasturning amaliy natijalari sarhisob qilindi. Bosqichning asosiy maqsadi — qo‘llanilgan zamonaviy metodlarning 5-6 yoshli bolalar nutqiy kompetensiyalariga ta’sirini aniqlash va ilmiy farazning to‘g‘riligini isbotlashdan iborat. Umuman olganda, “MTT rivojlanish markazlarida bolalar nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy metodlarni keng joriy etish, tarbiyachilar malakasini oshirish va ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligi aniqlandi. Tajriba-sinov jarayonida shuni ko’rsatadiki, bolalarning nutqini rivojlantirishda zamonaviy metodlarning samaraliroq ekanligi va ularni mashg’ulotlar, video-darsliklar, sahnalashtirilgan o’yinlar yuqori samara berishini kuzatdik.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida 5-6 yoshli bolalar uchun xavfsizlik qoidalarini o‘rgatishning 3 ta asosiy bloki samarali ekanligi isbotlandi:

A. AKTDAN FOYDALANISH. Bolalarning nutqini shakllantirishda Maktabgacha yoshdagi bolalarga bilim berish jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida “mo‘jizaviy sarguzasht”ga aylantirish va ularning intellektual salohiyatini o‘yin orqali oshirish

B. DIDAKTIK MATERIALLAR. bolalarga bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, ularning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘rgazmali va amaliy vositalardir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, xususan, 5-6 yoshli bolalar bilan ishlashda didaktik materiallar o‘quv faoliyatining "skeleti" hisoblanad

C. (QR-KOD)LAR OLAMI. Bolada QR kodlar orqali topshiriqlar shakllantirish, mashg‘ulotlarni zerikarli jarayondan jonli sarguzashtga aylantirish va eng muhimi, bolajonlarimizning ko‘zlarida hayrat, qalbida ilmga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, 48-DMTT tajribasi nafaqat ushbu tashkilotda, balki boshqa ta’lim tashkilotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zamonaviy metodlardan foydalanish, ularni o’rgatish metodikasidan foydalanish yuqori natija beradi va ularni amaliyotga keng joriy etish kutilayotgan ijobiy natijani berishiga umid qilamiz va buning uchun hali yana izlanishda davom etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022-yil..
4. “Ilk Qadam” davlat o'quv dasturi 2022-yil (takomillashtirilgan ikkinchi nashri). “Ma’rifat-Madadkor” nashriyoti, Toshkent shahri.